XALQ DEPUTATLARI QUVA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-may VII-9-69-11-156-K/25 Quva tumani

Geografik obyektlarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-yil 41-son 448-modda, 2017-yil 35-son 914-modda)ning 10-moddasi hamda 2025-yil 31-yanvardagi Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun talablariga muvofiqligi haqida ekspert komissiyasi xulosasiga asosan “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Quva tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyaning 2025-yil 31-yanvarda tasdiqlagan “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat-tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslaxatchisi M.Botirovaning bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yil 31-yanvardagi Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida ekspert komissiya xulosasida O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlaming nomlari to‘g‘risida”gi 303-son qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb ko‘rsatilgan 7 ta geografik obyektning nomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat-tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslaxatchisi M.Botirova va Kadastr agentligi Quva tuman bo‘limi rahbari X.Qurbonov bilan birgalikda:

-tumandagi Geografik obyektlar nomlarini joy aholisining tarixi, qadriyatlari, milliy urf-odatlarini saqlagan holda nomlanganligini o‘rganish;

-tumanda geografik obektlarning nomlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlarni samarali tashkil etish vazifalari yuklansin.

4. Mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari nomsiz obyektlarga nom berilishi munosabati bilan aholi o‘rtasida tegishli tushunturish ishlarini olib borsin.

5. Mazkur qaror tuman matbuot xizmatlarida yoritilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya raisi (M.Axmadaliyeva) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi UMAROV XALIMJON KOMILOVICH

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 27-maydagi
VII-9-69-11-156-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlaming nomlari to‘g‘risida”gi 303-son qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb ko‘rsatilgan 7 ta geografik obyektning nomi

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspertiza komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Guliston MFY	Nomsiz	Bog‘bonlar	**Bog‘bon**-“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normalashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Qabriston	Guliston MFY	Nomsiz	Ayritom ota	**Ayritom**-“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normalashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Qabriston	Yangichek MFY	Nomsiz	Yangi bo‘zaxo‘r	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Qabriston	Yangichek MFY	Nomsiz	Bo‘zaxo‘r	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Qabriston	Namuna MFY	Nomsiz	Paxtaobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Qabriston	Mustaqillik MFY	Nomsiz	Yangi Qayrag‘och	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Qabriston	Mustaqillik MFY	Nomsiz	Qayrag‘och	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq